

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 10 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Фарманова Гулнара Комилевна*  
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО  
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ  
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР  
БОШИ) ..... 19-26

*Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*  
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ  
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34

*Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*  
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39

*Янгибоева Дилноза Ўктамовна*  
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ  
ФАОЛИЯТИ ..... 40-48

*Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА  
УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53

*Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*  
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58

*Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*  
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA  
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSIOLIK Tahlil) ..... 59-65

*Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*  
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74

*Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*  
XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA  
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80

*Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*  
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ  
ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Boltayev Nurali Shiramatovich*  
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>То'хтайев Hakim Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	173-178
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	179-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	187-193
<i>Umarova Xurshida Zikiryoixonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI .....	194-201
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN .....	202-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI .....	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	218-224
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI .....	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР .....	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР .....	247-253
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI .....	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328



*10.00.00-Филология фанлари*

**Abdijabbor Amanov**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph.D),  
Namangan davlat universiteti

**MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** O'zbek tili sintaktik tuzilmalarida zamonaviy lingvistik va kommunikativ ehtiyojlarni qondirish uchun jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilidagi murakkab sintaktik butunlikning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, an'anaviy sintaksisning murakkab sintaktik tuzilmalarni o'zida mujassamlashtirgan holda qanday rivojlanganligiga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** murakkab sintaktik butunlik, lingvistika, abzas, matn birliklari.

---

**Abdijabbar Amanov**

Doctor of Philosophy in Philology (Ph.D),  
Namangan State University

**CHARACTERISTICS OF THE COMPLEX SYNTACTIC WHOLE AS A LARGE UNIT OF  
THE TEXT**

**Abstract.** The Uzbek language has undergone significant changes in its syntactic structures to meet modern linguistic and communicative needs. This article examines the specific features of the complex syntactic integrity of the modern Uzbek language, and focuses on how the traditional syntax developed incorporating complex syntactic structures.

**Keywords:** complex syntactic integrity, linguistics, paragraph, text units.

---

**Абдиджаббар Аманов**

доктор философских наук в филологии (Ph.D),  
Наманганский государственный университет

**ХАРАКТЕРИСТИКА СЛОЖНОГО СИНТАКСИЧЕСКОГО ЦЕЛОГО КАК БОЛЬШОЙ  
ЕДИНИЦЫ ТЕКСТА**

**Аннотация.** Современный узбекский язык переживает заметные преобразования в своей синтаксической структуре, адаптируясь к текущим языковым и коммуникативным требованиям. В рамках данной работы подробно изучаются особенности сложного синтаксического строения в современном узбекском языке. Особое внимание уделяется эволюции традиционных синтаксических форм и их интеграции с более сложными синтаксическими конструкциями.

**Ключевые слова:** сложная синтаксическая целостность, лингвистика, абзац, единицы текста.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N27>

**Kirish.** Tilshunos olimlar bir umumiy mavzu va shakliy jihatdan bog'liq bo'lgan matni o'rganishni, avvalo, uni tashkil etuvchi gaplarning o'zaro bog'lanishini tadqiq etishdan boshladilar. Olimlar matnda gapdan ko'ra kattaroq bo'lgan sintaktik butunlik mavjudligini qayd etish barobarida ushbu butunlikni atashda ham turli terminlardan foydalanganlar. Natijada, atamalar xilma-xilligi yuzaga kelgan: murakkab sintaktik butunlik (MSB), superfrazaviy birlik, prozaik band, paragraf, abzas, blok va boshqalar. O'zbek tilshunosligida murakkab sintaktik butunlik yaxshi o'rganilmaganligi sababli, murakkab sintaktik butunlikning muhim xususiyatlarini, tuzilishining o'ziga xosligini, murakkab sintaktik butunlik tarkibidagi aloqa vositalarining turlarini batafsilroq bayon qilish ehtiyoji saqlanib qolgan.

**Adabiyotlar sharhi.** Gapdan kattaroq bo'lgan matn birligi masalasi birinchilardan bo'lib A. Peshkovskiy tomonidan o'rganilgan [1]. Biroq u mazkur birlikni nomlovchi aniq bir atama yo'qligini ta'kidlab, ushbu birlikni "abzas" atamasi bilan belgilaydi. Ayrim olimlar esa paragrafni matn birligi sifatida tan olishadi [2]. Ammo, bizning fikrimizcha, abzas va superfrazaviy birlik yoki murakkab sintaktik butunlik turli darajadagi birliklardir.

Abzas atamasi, asosan, ikki o'rinda qo'llaniladi:

1. Abzas — bosma yoki yozma matnda xatning birinchi qatoridan (yoki satr boshidan) joy tashlab boshlash. Adabiyotda abzas matnning satr boshidan boshlanib, keyingi satr boshigacha davom etadigan qismi [3].

2. Odatda, superfrazaviy birlik yoki uning qismini o'z ichiga olgan, oddiy yoki qo'shma gaplardan iborat bo'lgan birlikning yozilgan yoki bosilgan matndan ko'chirib olingan qismi [4].

"Abzas, — deb yozadi L.M. Loseva, bu yozma nutqning alohida birligi emas, balki turli xil sintaktik birliklar tomonidan ifodalangan matnning bir qismidir (murakkab sintaktik butunlik, jumla yoki murakkab sintaktik butunliklarning birikmasi). Abzasning ajratilganligi, avvalambor, abzaslar orasidagi matn birligining birinchi jumlasiga urg'u berilganligi sabablidir, bu jumlaning xatboshi deb hisoblash mumkin"[5]. U abzaslarni ajratib ko'rsatishning asosiy qoidalarini sanab o'tdi. Shunday qilib, uning fikriga ko'ra, matnlarni abzaslarga ajratishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Bir shaxs yoki predmet haqida ma'lumot beruvchi o'zaro mazmuniy bog'liq bo'lgan gaplar. Ularning shakliy belgisi bir xil otlarning matnning turli joylarida takror qo'llanishidir.

2. Avvalgi abzasda aytilmagan yangi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan gaplar. Bunday jumlalarda, odatda, oldingi abzasda ishlatilmagan so'zlar va iboralar qo'llaniladi.

3. Xuddi shu shaxs (lar) to'g'risida va uzoqroq aloqa orqali bog'langan takroriy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan gaplar. Ularning shakliy xususiyati nominativ holatda bir xil otlarni matnning turli qismlarida takrorlashidir.

4. Oldingi abzasdagi so'nggi egaga tegishli bo'lmagan kishilik, ko'rsatish va boshqa olmoshlar bilan boshlanadigan gaplar.

5. Ma'nosiga ko'ra oldingi abzasga aloqador bo'lmagan gaplar

N.A. Turmacheva superfrazaviy birlik va abzaslarning mohiyatini o'rganib chiqdi va matni qismlarga ajratishning bu ikki usulini taqqoslab, 1970 yilda shunday yozgan edi: "... Superfrazaviy birlik, semantik va grammatik birlashma bo'lib, u semantik-sintaktik kategoriyadir ...", "ajratilgan abzas esa kompozitsion va ekspressiv-stilistik vazifalarga ko'ra, stilistik kategoriya, aniqrog'i, stilistik-semantik kategoriyadir"[6]. Bu fikr, nazarimizda, masala mohiyatini aniqroq ifodalaydi.

Matn sintaksisi bilan shug'ullangan ko'pchilik olimlar qatori, biz ham matnning asosiy birligi murakkab sintaktik yaxlitlik ekanligini e'tirof etamiz.

Tilshunoslar murakkab sintaktik butunlikni belgilash uchun bir qator atamalarni qo'llaydilar. Ular orasida murakkab sintaktik butunlik (A. Peshkovskiy), sintaktik kompleks (A. Ovsyanikova), superfrazaviy birlik (O. Axmanova), matn tarkibiy qismi (I. Figurovskiy) va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Bizning fikrimizcha, **murakkab sintaktik butunlik** atamasi ushbu lingvistik hodisaning mohiyatini to'liq aks ettiradi.

Tadqiqotchilar murakkab sintaktik butunlikni to'rt yo'nalishda o'rganadilar:

- 1) matn mazmuniga ko'ra;
- 2) matnning qo'llanishiga ko'ra;
- 3) matnning qurilishiga ko'ra;
- 4) matnning bajargan vazifasiga ko'ra.

Ba'zi bir olimlar murakkab sintaktik butunlikni mazmun nuqtai nazardan ko'rib chiqib, matnning izchilligini mantiqiy muvofiqligi bilan tenglashtiradilar. Bunday tenglashtirishni to'g'ri deb bo'lmaydi.

Ammo, ma'lumki, "matnning mantiqiy uyg'unligi umumiy matnning uyg'unligi bilan bir xil emas, chunki matn mantiqiy jihatdan qarama-qarshiliklarni, nomuvofiqliklarni, uzilishlarni va boshqalarni o'zida ifodalashi mumkin, bu mantiqiy birlik uchun noqonuniydir." [7]

Matn pragmatika nuqtai nazaridan eng kam o'rganilgan sohalaridan biridir. I. Galperinning so'zlariga ko'ra, bu borada murakkab sintaktik butunlikni o'rganish, matn qismlarining ketma-ketligini aniqlash, ya'ni matnlarning yuzaga kelish mexanizmini aniqlash juda muhimdir.

Matnlarni amaliy nuqtai nazaridan o'rganishda ancha yutuqlarga erishilgan. Bunda tahlil qilishning ikki yo'nalishi ajralib turadi:

- 1) mustaqil gaplarni murakkab birliklarga birlashtirish usullarini o'rganish orqali jumladan kattaroq birliklarni ajratish va o'rganish;
- 2) matn qismlarini bog'lovchi vositalarni o'rganish.

Mustaqil gaplarni o'zidan kattaroq bo'lgan birliklarga birlashtirish usullarini o'rganishga G.Ya. Solganik asarlarini misol qilib keltirish mumkin [8]. Muallif gaplarning birlashtirish usullarini o'rganar ekan, gaplardan kattaroq bo'lgan birliklarni murakkab sintaktik butunlik yoki "nasriy bandlar" kabi tasniflaydi. Mustaqil gaplar o'rtasidagi aloqaning asosiy usuli, uning tarkibiy birliklari haqida gapirganda, G. Solganik murakkab sintaktik butunlikning ikkita tarkibiy turini ajratib ko'rsatadi:

a) gaplar bir-biri bilan ketma-ket bog'langanda, mustaqil gaplar orasidagi zanjirli nasriy bandlar;

b) gaplar mazmuni bir-biri bilan taqqoslanganda parallel ravishda bog'langan nasriy bandlar.

Nasriy bandlarning tuzilishini aniqlashda ikkita usulni farqlash taklif etiladi:

a) bandning ichki tarkibiy tuzilishini ochib beradigan va gaplarni birlashtirishning sintaktik vositalarini aniqlovchi sintaktik usul;

b) bandning tashqi ko'rinishini, bandning chegarasini, tafakkur rivojlanishining xususiyatini, mavzularini belgilovchi kompozitsion-tematik usul.

Murakkab sintaktik butunlikning qanday amal qilishini o'rganish masalasi ko'pchilikning e'tiborini tortgan. Lekin matnni bu tarzda tahlil qilish, asosan, badiiy adabiyot tili va uslubi tadqiqidagina ko'zga tashlanadi.

Murakkab sintaktik butunlik tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligiga asoslanib, N.A. Turmacheva murakkab sintaktik butunlik tarkibidagi grammatik bog'liqlikning beshta asosiy turini ajratib ko'rsatadi [9]:

- 1) zanjirli bog'lanish;
- 2) parallel bog'lanish;
- 3) safli bog'lanish;
- 4) bog'lovchilar orqali bog'lanish;
- 5) vaziyatli bog'lanish.

Turli xil murakkab sintaktik butunlikning mavjudligi ikkita asosiy omil bilan belgilanadi: biri, murakkab sintaktik butunlikni tashkil etadigan gaplarning turlari va ikkinchisi, ular o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari. Bu ikki omil funksional uslubga, matn turiga va muallifning individual uslubiga bog'liq.

Matnning asosiy tarkibiy qismi, birligi bo'lgan murakkab sintaktik butunlikni ajratish har doim ham oson kechavermaydi. Ba'zi hollarda, u abzasga to'g'ri kelsa, boshqa hollarda, bitta abzas osongina bir nechta murakkab sintaktik butunlarga bo'linishi mumkin. Xabarning mazmuniga va ayniqsa, pragmatik munosabatga qarab, murakkab sintaktik butunlik va abzas chegaralari, ko'pincha, bir-biriga mos keladi. Shunga qaramay, murakkab sintaktik butunlikni matnning tarkibiy qismi, gapni esa murakkab sintaktik butunning tarkibiy qismi sifatida baholash lozim.

L.M.Loseva murakkab sintaktik butunlikning quyidagi xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Murakkab sintaktik butunlik (MSB) matn tarkibidagi eng katta sintaktik birlikdir.
2. Murakkab sintaktik butunlik — bu mavzu jihatidan, shuningdek leksik, grammatik va ohang jihatdan birlashtirilgan mustaqil gaplar guruhidir.
3. Murakkab sintaktik butunlik tasvirlanayotgan hodisaning biron-bir tomonini qamrab oladi.
4. Murakkab sintaktik butunlik tarkibidagi jumlar orasidagi aloqa bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Sanab o'tilgan xususiyatlar asosida u umumiy tarzda murakkab sintaktik butunlikka ta'rif beradi. "Murakkab sintaktik butunlik, — deb yozadi u, bu matndagi eng kengaytirilgan sintaktik birlikdir, bu tasvirlanayotgan mavzuning u yoki bu jihatlarini tavsiflovchi bir-biri bilan uzviy bog'liq hamda o'zaro aloqada bo'lgan gaplar guruhidir" [10].

G.Ya. Solganikning so'zlariga ko'ra, "nasriy band (bizning fikrimizcha, murakkab sintaktik butunlik — muallif tomonidan) — bu alohida gaplar bilan taqqoslaganda, fikrning yanada to'liq rivojlanishini ifodalovchi ma'no va sintaktik jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jumlar guruhidir" [11].

K.N.Veliyev (Boku) quyidagilarni murakkab sintaktik butunlikning belgilari deb ko'rsatadi:

- 1) mazmun, ma'no yaxlitligining(aniqlik) birligi;
- 2) qismlarning o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladigan aloqa usullari;
- 3) tarkibiy tutashganlik;
- 4) murakkab gaplar bilan taqqoslaganda aloqa usullarining chuqurligi, ko'p qirraliligi;

5) matn tarkibidagi grammatik va leksik birliklarning nisbiy mustaqilligi;

6) kalit soʻzlar, jumlar mavjudligi, ularni olmosh, shuningdek, sinonimlar bilan almashtirish imkoniyatining mavjudligi [12].

**Tahlil va natijalar.** Murakkab sintaktik butunlikning belgilari butun matn yoki matndan olingan muayyan parcha doirasida aniqroq namoyon boʻladi.

Misollarga murojaat qilaylik: *Duoibad qilmoq, yaʼni bandaga Allohdan yomonlik tilamoq musulmon farzandiga xos emas. Baʼzan qargʻishlarni eshitib qolamiz: banda koʻzlarining koʻr yoki oyoq qoʻllarining shol boʻlib qolishi soʻraladi Allohdan. Bu kabi qargʻishlarda ikki xil nodonlik mavjud: agar banda aybdor boʻlsa unga qanday jazo berishni Yaratganning oʻzi biladi. Jazo turi banda tomonidan belgilanmaydi. Faraz qilaylik-ki, qargʻish tegib, oʻsha odam koʻr boʻldi. Xoʻsh, bundan duoibad qilgan odamga biron naf bormi? Faqat koʻngil quvonchi bor. Bu koʻngil quvonchining egasi esa iblisdir.*

*Baʼzilar oʻzlari yomon deb faraz qiluvchi kishilarning oʻlimini ham istaydilar. Avvalo, oʻlim duo bilan boʻlmaydi. Bu taqdir yozugʻidir. Xoʻsh, oʻsha odam dunyoni tark etsa duoibad qilgʻuvchining hayoti chiroyliroq boʻlib qoladimi?*

*Yomon niyatli duodan koʻra xayrli – yaxshi duo qilmoqlik odam farzandi uchun foydaliroq emasmi? Yomon deb oʻylaganimiz odamga Alloh insof, hidoyat soʻrasak-da duolarimiz ijobat boʻlib u kishi yaxshilik yoʻliga oʻtsa, faqat bizga emas, jamiyatga foyda-ku!*

*Duoibad uchun savob yoʻq. Alloh yaratgan bandalarining bir-birlariga yaxshilik qilishini istaydi va shu maqsaddagi xayrli duolar ajr beradi. Yaxshi mukofotdan yuz oʻgirish nodonlikdir.*

*Bu masalada yana bir mulohazam bor: kimningdir koʻr yoki shol boʻlishini yoki tezroq oʻlishini istovchi bandaning dili qanday ekan? Kir va qora emasmikin? U holda boshqa bir dili qora uni duoibad qilib oʻtirmaganmikin?[13]*

Tahlil qilinayotgan parcha beshta murakkab sintaktik butunlikni oʻz ichiga oladi. Ularning har biri oʻz mikro mavzusiga ega. Birinchi murakkab sintaktik butunlik duoibad qilmoq haqida, ikkinchisi — birovga oʻlim istamoq haqida hikoya qiladi, uchinchisi — yaxshi duo qilmoqlik haqidadir. Yuqoridagi uchta murakkab sintaktik butunlik toʻrtinchi — duoibad uchun savobning yoʻqligi va beshinchi — dili qoralik haqidagi mavzuga oʻtish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Hamda ushbu mikro matnlar oʻziga xos yaxlitlik kasb etadi.

Har bir murakkab sintaktik butunlik — bu ibtido va intihosiga ega boʻlgan kichik bir hikoya kabi taassurot qoldiradi.

Shunday qilib, murakkab sintaktik butunliklar oʻrtasidagi chegaralarni belgilashda jumalarning mazmuniy va shakliy (leksik va grammatik) xususiyatlari hisobga olinadi. Ohang, shuningdek, oldingi jumlaning keyingisiga mazmun jihatdan tobeligi, bitta murakkab sintaktik butunlikni boshqasidan ajratishga yordam beradi.

Agar mazmuniy tobelik boʻlmasa, unda mikromavzu tugaydi, u holda yangi murakkab sintaktik butunlik boshlanadi, shu bilan birga murakkab sintaktik butunlikni shakllantirgan gaplar bilan keyingi MSB jumalari oʻrtasida parallel bogʻliqlik mavjud boʻlgan hollar bundan mustasno, albatta.

Boshqa misolni olaylik.

*Bir vaqtlar Zarafshon bogʻida bogʻbon boʻlgan Muborizxon (avvalgi Afzalbek) Akbar va Pirmuhammadning gaplarini Bayramxonga yetkazib yurib uning yaqin odamiga aylangan edi.*

*Biroq Bayramxon yengilib, Akbarga eng yaqin odam — Adhamxon va uning onasi Mohim enaga o'lib qolganini ko'rgan Muborizxon, hamon Bayramxonning xizmatida yurgan bo'lsa ham, endi uning ichki sirlarini Adhamxonga yetkazib turdi va uning sodiq xufiyasiga aylandi.*

*Adhamxon kelajakda Bayramxon kabi vakili saltanat bo'lish orzusida edi. Buning uchun avval Bayramxonni, undan so'ng Munimxonni yo'q qilish fikriga tushgan. Muborizxon shu rejalarni amalga oshirishda unga astoydil xizmat qilsa Adhamxon uni haligacha ushalmay kelayotgan orzulariga yetkazishi, katta amal va mulk in'om etishi mumkin.*

*Muborizxon Bayramxonning eng ishonchli xizmatkorlari qatorida safarga birga chiqdi. Adhamxon unga Ahmadoboddan naridagi Patan shahrining kutvali Musaxon Pulodiy bilan yashirin aloqa bog'lashni buyurdi. Patan Gujarat podshosiga qarar, bu yerda Akbarning hukmi o'tmas edi. Adhamning oshnasi Musaxon esa Agrada Bayramxon bilan chiqisholmay, poraxo'rlikda ayblanib, to'rt yil burun Patanga ketib qolgan, ammo Adhamxon bilan haligacha maktub yozishib turar edi. Endi Adhamxon bilan Pirmuhammad atka Bayramxonni Patanda o'ldirish rejasini shu Musaxon bilan til biriktirib tuzdilar. Muborizxon ikki orada maxfiy vositachi vazifasini o'tadi [14].*

Ushbu parcha 4 murakkab sintaktik butunlikni o'z ichiga oladi. Murakkab sintaktik butunliklarni ajratishda biz jumjalarning mazmuniy va shakliy xususiyatlariga tayanib ish ko'rdik. Murakkab sintaktik butunlikning chegaralari aksariyat hollarda matnning birinchi gapi mazmunida va sintaktik tuzilishida belgilab beriladi.

**Xulosa.** Turli sohalarda olib borilayotgan islohotlar tilshunoslik sohasida aks ettirilgan bo'lib, kompyuter tilshunosligi va ijtimoiy tilshunoslik kabi yangi kichik fanlarning paydo bo'lishi misol bo'la oladi. Matn tilshunosligi madaniyat, til va adabiyot haqidagi tushunchamizni boyitib kelayotgan ana shunday rivojlanayotgan sohalardan biridir. Ushbu maqolada hozirgi o'zbek tilidagi murakkab sintaktik butunlikka e'tibor qaratilayotganda biz o'zbek sintaksisining kengroq ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga mos ravishda rivojlanib borayotganini ko'ramiz. Bu nafaqat o'zbek tilining faolligidan dalolat beradi, balki jamiyatdagi o'zgarishlar va til taraqqiyoti o'rtasidagi hayotiy bog'liqlikni ham mustahkamlaydi. Ushbu murakkab o'zaro ta'sirni chuqurroq tushunish uchun ushbu sohadagi davomli tadqiqotlar juda muhimdir.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. Издание 6-е //М.: Учебно-педагогическое издательство. – 1938. – Т. 457.
2. Сильман Т. И. Проблемы синтаксической стилистики:(на материале немецкой прозы). – Просвещение. Ленингр. отд-ние, 1967.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент-2014, 51-бет
4. Розенталь Т. Розенталь ДЭ, Теленкова МА Словарь-справочник лингвистических терминов //М.: Просвещение. – 1976.
5. Лосева Л.М. Как строится текст. М., 1980. С.85.
6. Турмачева Н.А. К вопросу о природе сложного синтаксического целого и абзаца // Синтагматика, парадигматика и их взаимоотношения. Рига, 1970.
7. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., 1981.
8. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М., 1973. С.86.
9. Турмачева Н.А. К вопросу о природе сложного синтаксического целого и абзаца // Синтагматика, парадигматика и их взаимоотношения. Рига, 1970.

10. Лосева Л.М. Как строится текст. М., 1989. 94 с
11. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М., 1973. С.95.
12. Велиев К.Н. Сложное синтаксическое целое и его поэтические конститuentь! в эпическом тексте // Советская тюркология, 1990. № 6. С.17-30.
13. Tohir Malik. Mehmon tuyg'ular. "HILOL-NASHR", Toshkent 2018 yil, 451-bet
14. Pirmqul Qodirov. Avlodlar davoni (Tarixiy roman). "Adabiyot uchqunlari". Toshkent-2018, 365-bet

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 10 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).